

## JINOYAT HUQUQIDA ISHTIROKCHILIK INSTITUTI VA JAVOBGARLIK MASALASI

**Qadambayeva Ozoda Umid qizi**

**Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti**  
**Yurisprudensiya: biznes huquqi yo'nalishi 2-bosqich talabasi**  
**qadamboyevaozoda2@gmail.com**  
**+9989073718111**

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.13218996>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jinoyat qonunchiligida ishtirokchilik tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, belgilari, ishtirokchilik turlari va shakllari, jinoyat ishtirokchilarining javobgarlik asoslari va doirasi tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** jinoyat, ishtirokchilik instituti, subyekt, qasd, ishtirokchilik shakllari, bajaruvchi, javobgarlik doirasi, jazo tayinlash.

Jinoyat sodir etishda ishtirokchilik instituti jinoyat huquqining muhim va murakkab, alohida ahamiyatga ega bo'lgan institutlaridan biri hisoblanadi. O'zR JKning VII bob 27-moddasida ishtirokchilikda sodir etiladigan jinoyatlarning umumiy tushunchasi berilgan bo'lib, unga ko'ra-ikki yoki undan ortiq shaxslarning qasddan jinoyat sodir etishda birgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi. Ushbu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, ishtirokchilikning obyektiv va subyektiv bog'liqligi mavjud. Subyektiv tomondan ikki yoki undan ortiq shaxslarning muayyan jinoyatni sodir etishda qasddan ishtirok etishidir. Obyektiv bog'liqlik belgisi esa jinoyatni amalga oshirishda ikki yoki undan ortiq shaxslarning qatnashayotganligi ya'ni ularning jinoyat obyektiv tomonini ifodalovchi harakatlarni birgalikda sodir etishidir. **M.H.Rustamboyevning** fikricha, ishtirokchilikda sodir etiladigan jinoyatlarning yuqori ijtimoiy xavfi shu bilan shartlanadiki, bunday holatlarda jinoiy-huquqiy muhofaza obyektlariga sezilarli katta zarar yetkaziladi, jinoiy faoliyat yanada mustahkamroq berkitiladi, bu esa huquq muhofazasi idoralarining uni o'z vaqtida fosh etish va oldini olish bo'yicha ishini qiyinlashtiradi[1].

Shuningdek, jinoyatni ishtirokchilikda sodir etilgan deb hisoblash uchun jinoyat huquqida maxsus belgilar ishlab chiqilgan bo'lib, ular quyidagilar:

- Jinoyatni sodir etishda ikki yoki undan ortiq shaxslarning ishtirok etayotganligi;
- Jinoyatda ishtirok etayotgan shaxslarning aqli rasoligi va jinoyat subyekti yoshiga yetganligi;
- Ular o'rtasida obyektiv va subyektiv bog'liqlikning mavjudligi

Bu belgilarning har biriga to'xtaladigan bo'lsak, birinchidan, ikki yoki undan ortiq shaxslarning muayyan jinoyatda ishtirok etishi deganda, faqat qasddan sodir etiladigan jinoyatda kamida ikki kishi qatnashib, biri bajaruvchi, ikkinchisi tashkilotchi yoki dalolatchi, yoxud yordamchi sifatida qatnashgan taqdirda ham jinoyat ishtirokchilikda sodir etilgan deb topiladi. Jinoyatni sodir etishda kamida ikki kishi bajaruvchi sifatida qatnashgan taqdirda ham jinoyat ishtirokchilikda sodir etilgan deb topiladi[2].

JK 28-moddasida jinoyatni bajaruvchi bilan bir qatorda tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham jinoyat ishtirokchilari deb topilishi alohida keltirib o'tilgan. Jinoyatni bevosita to'la yoki qisman sodir etgan yoxud ushbu Kodeksga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lmagan shaxslardan yoki boshqa vositalardan foydalanib, jinoyat sodir etgan

shaxs bajaruvchi deb topiladi. Bajaruvchining harakatlari to'g'ri yoki egri qasd bilan xarakterlanishi mumkin. Bajaruvchi boshqa ishtirokchilar bilan birgalikda o'zi sodir etayotgan harakatlarining ijtimoiy xavfli xarakterini anglaydi, ular uchun umumiy, yagona oqibat yuzaga kelishi mumkinligi yoki muqarrarligini oldindan ko'ra biladi va shu oqibatining yuzaga kelishini istaydi yoki ongli ravishda shunga yo'l qo'yadi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko'rilishiga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs tashkilotchi deb topiladi. Tashkilotchi, odatda, guruh a'zolarini uchrashtirib, tegishli yo'l-yo'riqlar ko'rsatish, zarur bo'lsa vositalar berish, jinoyat sodir qilishning qulay usullari yuzasidan tegishli maslahatlarni berish bilan cheklanib, jinoyatning obyektiv tomonini ifodalovchi harakatlarda bevosita qatnashmaydi. Jinoyatning tashkilotchisi asosiy tashabbuskorlardan biri bo'lib, u jinoyat sodir etilishini tashkil qiladi, jinoyatni sodir qilayotganlarning harakatlariga rahbarlik qiladi.

Jinoyat sodir etilishiga qiziqtiruvchi shaxs esa dalolatchi deb topiladi. Dalolatchilik subyektiv tomondan to'g'ri qasddan sodir etiladi. Dalolatchi boshqa bir shaxsni jinoyat sodir etishga qiziqtirayotganligini biladi, shuni istab harakat qiladi.

JK ning 28-moddasining 5-qismiga muvofiq, jinoyat sodir etilishiga o'z maslahatlari, ko'rsatmalari bilan, vositalar berish yoki to'siqlarni yo'qotish bilan ko'maklashgan, shuningdek jinoyatchini, jinoyat sodir etish quroli, izlari va vositalarini yoxud jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan narsalarni yashirishga, shuningdek bunday narsalarni olish va o'tkazish to'g'risida oldindan va'da bergan shaxs yordamchi deb topiladi.

Jinoyat sodir etishda ishtirok etayotgan shaxslarning barchasini jinoiy javobgarlikka tortish uchun muhim belgilardan biri-JKning 17-moddasida nazarda tutilgan yoshga yetgan hamda 18- moddasida nazarda tutilgan jinoyat sodir qilish paytida o'z qilmishining ijtimoiy xavfli xususiyatini anglagan va o'z harakatlarini boshqara olgan holda bo'lgan bo'lishi lozim.

Ishtirokchilikning turlari bilan bir qatorda, uning alohida shakllari ham mavjud. JK 29-moddasi 1-qismiga asosan, jinoyatdagi ishtirokchilik shakllari sifatida:

- Oddiy ishtirokchilik;
- Murakkab ishtirokchilik;
- Uyushgan guruh;
- Jinoiy uyushma tan olinadi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirmay jinoyat sodir etishda qatnashishi oddiy ishtirokchilik deb topiladi (JK 29-moddasi 2- qismi). Ishtirokchilikning mazkur shakli jinoyat boshlanishi paytiga qadar kelishib olish imkoni yo'qligi bilan izohlanadi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning oldindan til biriktirib jinoyat sodir etilishida ishtirok qilishi murakkab ishtirokchilik deb topiladi. Ishtirokchilikning bu shakli uchun asosiy element bo'lib, ikki yoki undan ortiq shaxsning jinoyat sodir etish boshlangunga qadar, shuningdek, JK Maxsus qismida ko'rsatilgan jinoiy qilmishning hech bo'lmaganda bir kishi tomonidan sodir etish boshlanguncha til biriktirilganligi hisoblanadi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borishi uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb topiladi (JK 29-moddasi 4-qismi). Ushbu ishtirokchilik shaklining o'ziga xos shakli: bunda oldindan til biriktirish, barqarorlik, vazifalarning taqsimlanishi, bir qancha jinoyat sodir etish maqsadida tuzilganligi bilan xarakterlanadi.

Jinoiy uyushma–ishtirokchilikning barcha shakllari ichida eng xavflisi hisoblanadi. Ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug‘ullanish uchun oldindan birlashishi jinoiy uyushma deb topiladi (JK 29-moddasi 5-qismi). Jinoiy uyushma asosiy belgilaridan biri uning tarkibiy bo‘g‘inining ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhlardan iborat bo‘lishidir.

Jinoyatda ishtirok etganlik uchun javobgarlik masalasi alohida muhim ahamiyat kasb etadi. JK 16-moddasi 2-qismiga muvofiq, jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo‘lgan qilmishni sodir etish jinoiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lib hisoblanadi. Mazkur qoida, ishtirokchilikda sodir etiladigan jinoyatlarga ham birdek taalluqlidir. JK 30-moddasi 1-qismiga muvofiq, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham ushbu Kodeks Maxsus qismining bajaruvchini javobgarlikka tortish belgilangan moddasi bo‘yicha javobgarlikka tortiladilar. Oldindan til biriktirgan guruh, jinoiy guruh va jinoiy uyushmaning tashkilotchilari hamda a‘zolari tayyorgarlik ko‘rilishi yoki sodir etilishida o‘zlari qatnashgan barcha jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar. Uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etgan yoki ularga rahbarlik qilgan shaxslar shu guruh yoki uyushma sodir etgan barcha jinoyatlar uchun, basharti, bu jinoyatlar ularning jinoiy niyati bilan qamrab olingan bo‘lsa, javobgarlikka tortiladilar. Boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan qilmish uchun uni sodir etgan shaxs javobgar bo‘ladi. Tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi jinoyatdan ixtiyoriy ravishda qaytib, jinoyatning oldini olish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan barcha choralarni o‘z vaqtida ko‘rganligi, jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlikni istisno qiladi[3].

### References:

1. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 1. Jinoyat haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. 289- bet.
2. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. (M. Usmonaliyev. – T., “Yangi asr avlodi”, 2010, 277-bet
3. <https://lex.uz/acts/-111453> Jinoyat kodeksi
4. Ochilov X.R., Haydarov Sh.D., Shamsidinov 3.3. “Jinoyat huquqi” (Umumiy qism). O‘quv qo‘llama – T.: TDYU Nashriyoti, 2021. 172 bet.
5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism/M. Rustambayev. Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021.784 b.